

TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURINING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJI

Dusyorova Laylo<https://orcid.org/0009-0003-2902-443X>

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi Sharof Rashidov
ko'chasi 360-uy Denov 190507 O'zbekiston (l.dusyorova@dtpi.uz)*

Annotatsiya

Xalqaro tadqiqotlardan biri hisoblanuvchi TALIS (The Teaching and Learning International Survey) rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarining ish faoliyatini o'rganish dasturi bo'lib, unda O'zbekiston ilk marotaba ishtirok etishi rejalashtirilgan. Oxirgi yillarda turli xalqaro tadqiqotlar ko'plab davlatlarda ta'lim samaradorligini va sifatini o'lchay oladigan asosiy mezon bo'lib, ta'limning keng ko'lamli islohotlariga sababchi bo'lgan dasturga aylandi.

Kalit so'zlar: TALIS, xalqaro tadqiqot, xalqaro baholash, ta'lim sifati, so'rovnama, "Ustoz-shogird" amaliyoti.

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ichida ta'lim tizimi islohotlari yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Ta'lim sifatini xalqaro ta'lim darajasiga tenglashtirish uchun tizimda bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda va bu davlatimizda ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan barchani birdek aloqadar etmog'i kerak. Jumladan, vazirlik, viloyat boshqarmasi, tuman bo'limlari rahbarlari tizimga kiritilayotgan o'zgarishlarni O'zbekistonning barcha hududlarida bir xil amalga oshirilishini ta'minlashi va nazorat qilishi; maktab direktorlari o'zi rahbarlik qilayotgan muassasada o'qituvchi ish faoliyatini sifatli tashkil etilishi uchun kerakli sharoit yaratishi va ta'limning sifatli olib borilayotganligini monitoring qilib borishi; fan o'qituvchilarining esa o'quvchilarga yaxshi bilim berishi, ularni darsga qiziqtiradigan, olgan bilimlarini hayotlari davomida qo'llay oladigan tarzda yetkazishi ularning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo ta'limi bilan bir qatorda O'zbekiston ta'limida ham o'quvchilarining mantiqiy fikrflashiga alohida urg'u berilmoqda va darsliklar ham shu asosda tuzilmoqda. O'qituvchidan bu jarayonda o'quvchini to'g'ri yo'naltira olishi, uni to'g'ri baholay olishi talab etilmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'qituvchining kompetensiyaviy yondashuvi yuqori bo'lishi kerak.

Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari

va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 8-dekabrida 997-sonli¹ qarorni qabul qildi.

Ushbu Qarorga ko'ra, TALIS xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ham xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi.

O'qitish va ta'lim olish xalqaro so'rovnomasini (TALIS) qarorgohi Parij shahrida joylashgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD – The Organisation for Economic Cooporation and Development) homiyligida 2008-yildan boshlab² har 5 yilda bir marotaba o'tkazib kelinmoqda. TALIS tadqiqotining maqsadi – ishtirok etuvchi mamlakat o'rta ta'lim muassasalarida eng samarali o'quv jarayonini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlash va ishlab chiqishda yordam berishdir. Shuningdek, turli mamlakatlardagi rahbar va pedagoglar tarkibini kasbiy rivojlantirish va samarali o'qitish uchun sharoitlarni takomillashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va qiyosiy tahlil qilish ishlarini olib boradi.

TALIS texnik talablariga binoan, so'rovnoma namunasi uchun muayyan mamlakatning 200 ta maktabi taxminiy tanlab olinadi. So'rovnomada qatnashayotgan maktablar direktorlari (200 nafar) va 4000 nafar yuqori sinf (har bir maktabdan 20 nafardan) o'qituvchilari ishtirok etadi.

Tadqiqot o'rta ta'lim tizimi muammolariga pedagoglar nuqtai nazaridan qarashga, ma'lumotlarni taqqoslab, tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida shu singari dolzarb masalalarni imkon qadar barvaqt aniqlash, chuqurroq o'rganish hamda ularni hal etishning eng samarali usullarini izlab topishga yordam beradi.

TALIS xalqaro baholash dasturi bo'yicha jahonda xalqaro tadqiqot oxirgi marta 2018-yilda o'tkazilgan. Navbatdagi tadqiqot bosqichi 2024-yilda o'tkazilishi belgilangan ushbu xalqaro baholash dasturida O'zbekiston ham ishtirok etishi rejalashtirilgan. 2021-yilda esa A.Avlonyi nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan O'zbekistonda 48 ta boshqa mamlakatlarda olib borilgan TALIS-2018 tadqiqotlar natijalari asosida ichki tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqot namunasi asosida mamlakatimizning 14 ta hududidagi 4000 ta umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 12 446 nafar respondentlardan so'rovlar olingan³.

Savolnomada o'qituvchilarning ish faoliyati qay tartibda tashkil etilganligi, kasbdoshlari bilan o'zaro hamkorlik qilishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar, shu bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora -tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabr, 997-son qarori, www.lex.uz

² https://qlapi.stesting.uz/media/publications/TALIS_2018__survey_brochure_ENG_UZB_4.pdf

³ Xalqaro tajriba mezonlari asosida A.Avlonyi nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazilgan tadqiqoqt hisoboti, 1-qism. Toshkent. Tuzuvchilar: A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov, M.Axmedov

birga, ular o'z malakasini oshirish uchun nima ishlar qilayotganliklari haqidagi savollarga javob berilgan.

Ushbu so'rvnama o'qituvchilarning maktablardagi faoliyatiga xolis baho berish, ular tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida ta'lim siyosatini ishlab chiqishda inobatga olinish nazarda tutiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish va maktab rahbariyati tomonidan o'qituvchilarni rag'batlantirish jarayonlarining bog'liqlik darajasi tadqiq etilgan.

TALIS tadqiqotida ishtirok etadigan davlatlarning o'rtacha 56 foizida yosh o'qituvchini kasbga o'rgatish bo'yicha rasmiy dastur joriy etilganini kuzatish mumkin. Ushbu kasbga kirish dasturida – maktab jamoasi va kasbiy faoliyatida yangi o'qituvchilarning moslashishi yoki maktabda birinchi marta muayyan faoliyatini boshlagan o'qituvchilarga maktabdagi tajribali o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator faoliyatlar masalalari kiritilgan. Bu faoliyat rasmiylashtirilgan yoki norasmiy shaklda tashkil etilishi mumkin. Afsuski, bu borada mamlakatimizda "ustoz-shogird" an'anasi "zanjir"lari ancha uzilgan. Bu holat 2021-yilda davlatimizda o'tkazilgan so'rvnomada ham o'z aksini topadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, 90,9 foiz direktorlar "Ustoz-shogird" dasturining mavjudligini aytishgan. Biroq o'qituvchilarning o'zlari "Ustoz-shogird" amaliyoti borligini direktorlarga nisbatan kam qayd etishgan⁴.

Ta'limni rivojlantirish bo'yicha hozirgi kunda amalga oshirilayotgan yo'nalishlarning aksariyati, jumladan, baholash, so'rov va boshqa shu kabi vositalar asosida monitoring natijalari uchun muayyan tizimning mavjudligini o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun ta'lim sifati bilan bog'liq barcha jihatlarni xolisona baholash amaliyotini ishlab chiqish, umuman, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish hamda ta'limda aniq loyihalarni amalga oshirishning muhim shartidir. O'z navbatida, bunday amaliyotni shakllantirish va rivojlantirishning muhim sharti - past baholi natijalarini ko'rsatuvchilarga o'z vaqtida yordam berish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Jumladan, ustoz-shogird hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirib borishdan iborat. Ushbu jarayonda ishtirok etadigan rahbar va pedagoglardan talab etiladigani esa, haqiqiy natijani aniqlab olishda sun'iy oshirish usullarini qo'llamasliklaridir, ya'ni faqat qog'ozdagina yuqori ko'rsatgichga erishish uchun yolg'on axborot bermasdan, ta'lim tizimidagi oqsoqliklarni haqiqatda aniqlab, shu bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi uchun real natijalarini qo'lga kirish zarurdir.

⁴ Xalqaro tajriba mezonlari asosida A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazilgan tadqiqoqt hisoboti, 1-qism.Toshkent. Tuzuvchilar: A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov, M.Axmedov. 34-b

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora -tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabr, 997-sod qarori, www.lex.uz
2. Xalqaro tajriba mezonlari asosida A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik, metodik va ijtimoiy muhit haqida ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazilgan tadqiqoqt hisoboti, 1-qism. Toshkent. Tuzuvchilar: A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov, M.Axmedov. 14-16; 34-b.
3. https://qlapi.stesting.uz/media/publications/TALIS_2018__survey_brochure_E_NG_UZB_4.pdf